

TANKLARNING YARATILISH VA RIVOJLANISH TARIXI

Davletov Bexzod Xalikovich

dotsent, QK xizmatchisi, Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti Qurollanish va otish kafedrasida tank bo‘linmalari otish tayyorgarligi sikli katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada muallif tanklarning yaratilishi va rivojlanish tarixi shuningdek, birinchi, ikkinchi jahon urushidagi va hozirgi kundagi tanklar to‘g‘risida ma‘lumot bergan.

Kalit so‘zlar: Tank, Mark I, “Shneyder”, “Sen-Shamon” stabilizator, Elektrokimyoviy, Elektromagnitli.

АННОТАЦИЯ

В этой статье даны сведения о истории и развития танков, а также танков от первой мировой войны до наших дней.

Ключевые слова: Танк, Марка I, “Шнейдер”, “Сен-Шамон” стабилизатор, электрохимический, электромагнитный.

Tank ishlab chiqarish ilmiy va texnik jihatdan eng murakkab jarayonlardan biri hisoblanib, u nafaqat mashinasozlik, balki metallurgiyaning ham tegishli darajada rivojlanishini talab etadi. Tanklar tarixi Birinchi jahon urushi davrida, ushbu yangi turdagi qurolning birinchi namunalari yaratilgan paytdan boshlanadi. O‘shandan beri tanklarning dizayni ham, ulardan foydalanish taktikasi ham faol ishlab chiqilmoqda va bu boradagi qarashlar ko‘p marta o‘zgargan.

Birinchi tankni Leonardo Da Vinchi ixtiro qilgan deb hisoblashadi. Bu otish uchun maxsus teshiklari bo‘lgan g‘ildiraklardagi yog‘och "quti" edi (1-rasm).



1-rasm. Leonardo Da Vinchi hayolidagi tank

Otish qudrati va manyovr qobiliyatini oshirish uchun harbiy muhandislar yangi jangovar transport vositasining o'lchami va og'irligi bilan tajriba o'tkazishni boshladilar.

Gusenitsalarni g'ildiraklar bilan birlashtirishga harakat qildi. Ular orasida bir qancha bahsli loyihalar bor edi. Misol uchun. Rossiyada muhandis Lebedenko va undan mustaqil ravishda Angliyadamayor Xeterington o'tish qobiliyati ko'proq bo'lishi uchun uchta ulkan g'ildirakli tank ishlab chiqdilar. Ikkala muhandisning g'oyasi shunchaki jangovar transport vositasi bilan suvli to'siqlardan o'tish edi, shuning uchun Lebedenko diametri 9 metr va Xeterington mos ravishda 12 metr bo'lgan g'ildirakli tank yaratishni taklif qildi.



2-rasm. G'ildirakli tank

“Tank” so‘zi inglizchadan “sisterna” yoki “bak” degan ma‘noni anglatadi. Bu Birinchi jahon urushi paytida, Buyuk Britaniya frontga tanklarning birinchi partiyasini yuborganida paydo bo‘ldi. Bu fakti nemis razvedkachilaridan yashirish uchun Rossiya hukumati Londondan yoqilg‘i baklarining katta partiyasini buyurtma qilgani haqida mish-mish tarqatishdi. Ulkan “sisterna”, “bak” niqobi ostida esa tanklar frontga jo‘natildi.


Rossiyada tankning "otasi" ixtirochi Aleksandr Poroxovshchikov hisoblanadi, u 1914 yilda jangovar mashina loyihasini taklif qilgan zodagondir. Poroxovshchikov ushbu mashinani "Vezdexod" deb nomladi.



3-rasm. Poroxovshchikovning "Vezdexod" deb

Britaniyalik ofitser Ernest Dunlop Suintonning loyihasi esa biroz mukammal o‘ylab topilgan edi. Suintonning tanki Poroxovshchikovning "Vezdexod"idan unchalik farq qilmadi. U shuningdek, namuna sifatida Amerikaning “Xolt” traktorini olib, gusenitsalardan foydalanishni taklif qildi.

Birinchi tank 1916 yil fevral oyida muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazildi. Bu tank Mark I bo‘lib "Ona" laqabini ham olgan. Tank ekipaji 8 kishidan iborat bo‘lib, uning og‘irligi 27-28 tonna, tezligi 4,5 km soat (murakkab joylarda 2 km/soat) edi.



4-rasm. Mark I tanki

Mashhur Somma jangi (1916 yil 15 sentabr) insoniyat tarixida tanklar qo‘llanilgan birinchi jang bo‘ldi. Bir millionga yaqin odamning hayotiga zomin bo‘lgan Sommadagi jang ingliz-fransuz qo‘shinlarining g‘alabasi bilan yakunlandi. Tankning debyuti muvaffaqiyatli deb topildi.

Fransuz tanklari “Shneyder” va “Sen-Shamon” jangga faqat 1917 yilda kirishdi. Fransuzlar gusenitsaning shaklini o‘zgartirmadilar, shuning uchun ularning

o'tuvchanligi Mk I nikidan past edi. Ammo gusenitsalari korpus ostida himoya qilingan.

Birinchi avlod tanklarini boshqarish va ularning to'plari va pulemyotlarini o'qqa tutish uchun 8-12 kishidan iborat ekipaj kerak edi. Ko'p odam sig'adigan mashinalar katta va og'ir edi. Ular piyodalar hujumiga ulgurmay, jang maydoni bo'ylab piyoda tezligida harakat qilar va dushman qurollari uchun oson nishonga aylanishdi. Muhandislar boshqa yechimlarni izlashdi.

1916 yil 15 sentabrda Somma jangida inglizlar birinchi marta bunday qurollarni tank sifatida ishlatishdi.

Britaniyaning muvaffaqiyatlariga qaramay, nemis qo'mondonligi dastlab o'z tanklarining dizaynini joylashtirishga emas, balki tankga qarshi mudofaani tashkil etishga e'tibor qaratdi. Nemis konstruktorlari loyihani shoshilinch ravishda amalga oshirishdi va 1916 yil 22 dekabrga qadar yakunladi. Mashinaning tuzilishi bo'ylama va ko'ndalang tekisliklarda simmetriyaga asoslangan bo'lib, bu hatto korpus eshiklarining joylashishiga ham ta'sir qildi. Mashina qisqartmasi bo'yicha A7V belgisini oldi.

Sobiq Sovet konstruktorlari Birinchi jahon urushi tajribalarini tahlil qilib, 1931 yil besh bashnyali T-35 tanki ishlab chiqishdi. T-35 tanki 1933 yilgacha butun dunyo Qurolli Kuchlarida mavjud bo'lgan tanklar orasida eng kuchli qurollangan tankka aylangan. Bitta bashnyali uchta pushka va beshta pulemyot aylanasiga o't ochishni ta'minlagan. Tankning markaziy bashnyasi elektr va qo'l yordamida aylantirilgan va bu bilan tanklarni jangovar otish qudrati oshgan.

Ikkinchi Jahon urushi manyovrli bo'lishi kutilgan edi va tanklar uchun tezlik, generallarning asosiy talabiga aylandi. Yuqori tezlikda ishlaydigan yengil tanklar oldingi chiziqqa kirib, dushman aloqalariga tezkor zarbalar berishlari kerak edi.

Yengil tanklar lokal to'qnashuvlarda yaxshi kurashdilar, ammo "katta urushda" ular o'zlariga berilgan ishonchni oqlay olmadilar.

Yengil tanklarning og'irligi 4-5 tonnadan 15-20 tonnagacha bo'lishi mumkin edi. Maqsadiga ko'ra, ular ikki guruhga bo'lingan, ularning nomlari turli mamlakatlarda farq qilar edi, lekin mohiyati bir edi: eng yaxshi zirhli, ammo tezligi past mashinalar piyoda qo'shinlarni qo'llab-quvvatladi va yuqori tezlikda bo'lganlari dushman chizig'i orqasida razvedka va reydlar uchun ishlatilgan. "Piyoda" tanklari ko'pchilikni tashkil etdi. Fransiyada "Reno" R-35 1917 yilgi namunadagi tankni almashtirish uchun ishlab chiqilgan.

Ikkinchi Jahon urushi yengil tanklarning muvaffaqiyat qozonish imkoniyati yo'qligini va ularning jang maydonlaridan tezda chiqib ketishini ko'rsatdi.

Urushning o'zgaruvchan sharoitlarini hisobga olgan holda, konstruktorlar "o'ttiz to'rt" ni modernizatsiya qilishdi: ular zirhni mustahkamladilar, bashnya shaklini

o'zgartirdilar va o'q-dorilar sonini oshirdilar. T-34 tankiga 1944 yilda 76 mm pushka o'rniga kuchliroq 85 mm pushka o'rnatildi va T-34-85 deb nomlandi.



5-rasm. T-34-76 tanki.



6-rasm. T-34-85 tanki.

Hujum va qarshi hujum operatsiyalari natijasi kvantli uzoqlik o'lgach, tank ballistik hisoblagich, qurol-aslaha stabilizatori va tungi ko'rish moslamalariga ehtiyoj sezildi.

Ikkinchi jahon urushi tank qurol-aslaha tizimiga ko'pgina o'zgarishlar olib keldi-tanklarni qo'llash ahamiyati ortdi, tank qurollari takomillashdi, tank bo'linmalarini boshqarish tizimi rivojlandi, shu o'rinda tankning o't ochishni boshqarish tizimi tarkibiga kiruvchi vazifalari murakkablashdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida "Kursk yoyi" hujum va qarshi hujum operatsiyalarida sobiq Sovet ittifoqidan T-34, T-70, va T-70M yengil tanklari, IS (Iosif Stalin) tipidagi og'ir tank va Germaniyadan PzKpfw-V turidagi "Pantera" o'rta tanklari, PzKpfw-VI turidagi "Tigr" og'ir tanklari, Tip-205 "Maus" o'ta og'ir tanklari va Fransiyadan S35 "Samua" tanklari hamda AQSH dan M4A3 o'rta tanklari qatnashdi.

Tanklarning yaratilish tarixini ikkinchi jahon urushidan keyin to'rt avlodga bo'lgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Urushdan so'ng dunyo tank sozligida mazkur jangovar vositalarning bir necha yangi avlodlari yaratildi. Jumladan, umumiy "urushdan keyingi birinchi avlod" tarkibiga Ikkinchi jahon urushining taktik-texnik talablari bo'yicha yaratilgan tanklar kiradi. Sobiq Sovet ittifoqida ishlab chiqarilgan T-54/55 vva T-62 tipidagi o'rta, T-10 tipidag og'ir tanklar shuningdek, AQShning M46, M47, M48 o'rta va M103 og'ir tanklari, Buyuk Britaniyaning "Senturion" o'rta va "Konkerror" og'ir tanklarini ana shunday jangovar texnikalar qatoriga qo'shish mumkin. Tilga olib o'tilgan mamlakatlar "ikki tank" siyosati bo'yicha ish tutgan bo'lib, ularning tank parklari asosini kichik miqdordagi og'ir tanklar bilan kuchaytirilgan o'rta tipdagi tanklar tashkil etgan.

Birinchi avlod tanklarga nisbatan qo‘llanganda, “o‘rta” va “og‘ir” tushunchalari nafaqat tankning og‘irligini, balki ma’lum darajada uning jangovar xususiyatlari va jangovar vazifalar ko‘lamini ham tavsiflagan. Shu sababli o‘rta tipdagi tanklar og‘irligi bo‘yicha bir-biridan juda farqlangan. Misol uchun, T-54/55 tipidagi sovet tanklarining og‘irligi 36-37 tonna, Buyuk Britaniyaning “Senturion” hamda AQShning M46, M47 va M48 tanklari og‘irligi deyarli 50 tonnani tashkil etgan.

Ikkinchi avlod tanklari 1960 yillarda yadro va yangi ishlab chiqarilgan tankka qarshi vositalar qo‘llanilishi sharoitida jangovar harakatlar uchun yaratildi. Bu avlod tanklarining birinchi nusxalaridan AQSH ning M-60, Germaniyaning “Leopard-1”, Fransuzlarning AMX-30, Inglizlarning “Chiften” va Sobiq Sovet ittifoqining T-64 va T-72 tanklarini misol keltirish mumkin.

Uchinchi avlod tanklari qurolli kuchlar tarkibiga 80-yillar boshida: amerikaning M-1 “Abrams”, Germaniyaning “Leopard”, fransiyaning “Leklerk”, angliyaning “Chellendjer” va Sobiq Sovet ittifoqining T-80 va uning modifikatsiyadagi tanklari kirib kelishni boshladi. Bu tanklarning tavsiflariga yaqin keladigan tanklar shuningdek, Italiya, janubiy Koreya, Yaponiya va Braziliya davlatlarida ham yaratildi. Bu avlod tanklari silliq stvulli 120-125 mm tank pushkalari bilan jihozlangan. Tank T-64, T-72 va T-80 tanklarining o‘q-dorilari tarkibida pushkadan otiluvchi boshqariluvchi raketalarining yaratilishi bilan ajralib turadi.

Urushdan keyin harbiy texnikaning rivojlanishi AQSH boshchiligidagi Shimoliy Atlantika ittifoqi (NATO) mamlakatlari va Sovuq urush davrida Sobiq Sovet ittifoqi boshchiligidagi Varshava shartnomasi mamlakatlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik bilan belgilandi. Ikkala tomon ham yadro quroliga ega edi. AQSH va Sobiq Sovet ittifoqida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar tanklar yadroviy zonalarda eng yaxshi ishlashini ko‘rsatdi. Ularning zirhlari, bosimli korpuslari va filtr-ventilyatsiya tizimlari ekipajlarni radiatsiya va yadroviy portlashning boshqa oqibatlaridan qisman himoya qildi. Bu nihoyat tanklarni quruqlikdagi kuchlarning asosiy quroli sifatida tasdiqladi.

To‘rtinchi avlod tanklarini ishlab chiqarishga 80-yillarda kirishildi.

To‘rtinchi avlod tanklari konstruksiyasining asosiy muhim tomonlari bu – otish qudratining oshirilishi, oddiy qurollardan va ommaviy qirg‘in qurollaridan himoya, yuqori harakatchanligi va boshqarishning yaxshilanishi bilan ajralib turadi. Bu avlod tanklarining otish qudratini oshirish maqsadida o‘zoq yillar mobaynida “Elektromagnitli, yoki “Elektrokimyoviy” pushkalarni yaratish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda, ya’ni bunda jangovar porox zaryadlarining otilishi elektromagnitlarning o‘zaro ta’siri natijasida amalga oshiriladi. Bunday pushka snaryadlarining boshlang‘ich tezligi 4000-5000 m/s ni tashkil etadi, bunig bilan ular har qanday tankning har xil qalinlikdagi zirxlarini tesha oladi. Bu tipdagi tank pushkalarining yana muhim jihatlaridan biri, otilgan snaryadlarining trayektoriyasi to‘g‘ri chiziqni tashkil

etadi (to'g'ri otish uzoqligi-4000 m), nishonga borish vaqti esa juda kam. Elektromagnit pushkalarining ekspluatatsiya qilishga kiritilishiga to'sqinlik qiluvchi faktorlar bu uning yuqori energiya ta'minotidir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, tanklar o'zining rivojlanish tarixida ko'plab ilmiy tadqiqot va konstruksion o'zgarishlarga uchragan, ya'ni XX asrning 14-50 yillarida o't ochishni boshqarish tizimi tarkibiga pushka, pulemyot, teleskopik va pereskopik mo'ljalga olish moslamalari keng foydalanilgan bo'lsa, mahalliy urushlar tajribalariga asoslanib XX asrning 80-90 yillarida rivojlangan mamlakatlar tanklarining o't ochishni boshqarish tizimlari ham to'xtovsiz rivojlanib bordi. Yangi rusumdagi tanklarni mohirona boshqarish ko'nikma va malakalariga ega bo'lish uchun esa ekipajlarni tayyorlash maktablari, tank bo'linmlari uchun ofitser kadrlarni tayyorlash uchun oliy ta'lim muassasalari o'quv faoliyatida ham katta o'zgarishlar yuzaga keldi.

Hozirgi vaqtda zirhli bo'linmalar deyarli barcha yirik armiyalarning quruqlikdagi kuchlarining asosiy zarba beruvchi kuchi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Дорошкевич О. Р. Бронетанковая техника от первой мировой войны до наших дней. Научно-популярное издания./ О. Дорошкевич. М-2002.
2. Волковский Н. Л. Энциклопедия современного оружия и боевой техники: Научно-популярное издания./ Н. Волковский. М-2005.
3. Шунков В.Н., Бронетехника: Справочное издание./В. Н. Шунков.-Минск, 2004.-С.7-12.